

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 62 (1661), 2026-yil 1-aprel, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



O‘ZBEKISTON VA QOZOG‘ISTON O‘RTASIDAGI IKKI VA KO‘P TOMONLAMA HAMKORLIK KENGAYTIRILADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizga rasmiy tashrif bilan kelgan Qozog‘iston Respublikasi tashqi ishlar vaziri Yermek Kosherbayevni qabul qildi.



Suhbat avvalida yuqori martabali mehmon davlatimiz rahbariga Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi yaqin do‘stlik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlashning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Parlamentlar, hukumatlar, hududlar va ishlabarmon doiralari darajasida

amalga oshirilayotgan faol hamkorlik munosabatlari katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Ta’kidlanidek, qo‘shma Hukumatlararo komissiya samarali faoliyat yuritmoqda. Tovar ayirboshlash hajmi barqaror o‘tib bormoqda, sanoat, energetika, transport, ekologiya va suvdan foydalanish sohalarida kooperatsiya aloqalari izchil kengaymoqda.

Uchrashuv chog‘ida iqtisodiy loyihalarni jadallashtirish, nodir metallar sohasida

hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, sayyohlik oqimini yanada ko‘paytirish, gumanitar almashinuv dasturlarini, shu jumladan, kosmos va kreativ iqtisodiyot sohalarida tobora kengaytirishga alohida e’tibor qaratildi.

Bo‘ljak ikki va ko‘p tomonlama tadbirlar kun tartibini puxta tayyorlash muhimligi ta’kidlandi. Xalqaro va mintaqaviy siyosat masalalari yuzasidan ham fikr almashildi.

O‘ZA

MINTAQAVIY BIRDAMLIKDAN STRATEGIK SHERIKLIK VA ITTIFOQCHILIKKACHA

Markaziy Osiyo integratsiya jarayoni jadal kechayotgan, nufuzi tobora oshib borayotgan hudud. Bu Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonning mamlakatimizga davlat tashrifi doirasidagi uchrashuv va kelishuvlar misolida yana bir bor tasdiqini topdi. Ushbu tashrif davomida davlat rahbarlari tor doirada muzokaralar va Oliy davlatlararo kengashning birinchi yig‘ilishini o‘tkazdi. Qo‘shma loyihalarga start berildi. Uchrashuvlar yakunida ikki tomonlama hujjatlarining salmoqli to‘plami imzolandi.

Umuman olganda, mamlakatlarimiz o‘rtasidagi munosabat teng huquqli va o‘zaro manfaatli amaliy hamkorlikning yangi darajasiga ko‘tarilmoqda. So‘nggi

yllarda bunday hamkorlikning amaliy qiyofasini xalqlarimiz hayotidagi o‘zgarishlar misolida ko‘rib turibmiz. Bu sa‘y-harakatlar Prezidentimizning Markaziy Osiyoni qayta

tiklashga qaratilgan va eng muhimi, o‘z vaqtida ilgari surilgan muhim tashabbuslarini to‘ldiradi. Har tomonlama qo‘llab-quvvatlaydi.

Shu o‘rinda yana bir muhim jihat haqida batafsil to‘xtalsak. Markaziy Osiyodagi hamjihatlik osongina paydo bo‘lgan emas. Bir paytlar mintaqaviy mamlakatlar o‘rtasida chegaralar yopiq, tushunmovchiliklar bor edi. Hatto qurolli to‘qnashuvlar sodir bo‘lgani ham achchiq haqiqat. Qardoshlar to‘yga bora olmas, sinovli kunlarda bir-birining yonida tura olmasdi.

▶ Davomi 2-betda

ISLOHOTLAR NATIJADORLIGI VA USTUVOR VAZIFALAR NAMANGANDA IQTISODIY O‘SISH SUR‘ATLARINI JADALLASHTIRADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 31-mart kuni Namangan viloyatida islohotlar natijadorligi hamda kelgusida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.

Yig‘ilishda so‘nggi yillarda Namanganda sanoat, xizmatlar va tadbirkorlik sohalarida katta o‘shish kuzatilib, viloyat ko‘plab yo‘nalishlarda boshqa hududlar uchun namunaga aylangani ta’kidlandi. Xususan, sakkiz yilda 40 mingdan ziyod yangi korxonalar ish boshlagan, ishlab chiqarish hajmi esa 6 barobarga oshib, 40 trillion so‘mga yetgan.

Qayd etilganidek, 2025-yil yakunlari bo‘yicha viloyat yalpi hududiy mahsuloti 85,4 trillion so‘mni tashkil etib, o‘shish sur‘ati 8,2 foizga yetgan. Sanoat mahsulotlari hajmi 40,1 trillion so‘mni, xizmatlar hajmi 56,3 trillion so‘mni tashkil qilgan. Viloyatga 3,3 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilinib, eksport hajmi 916 million dollarga yetgan.

Davlatimiz rahbari jahon bozoridagi beqaror vaziyat sharoitida Namanganda iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini saqlab qolish va yangi “o‘shish nuqtalari”ni ishga solish muhimligini ta’kidladi. Shu munosabat bilan 2026-yilda viloyat rahbariyati oldiga iqtisodiyotni 9,2 foizga, sanoatni 9 foizga, xizmatlarni 16,3 foizga, qishloq xo‘jaligini 6,8 foizga oshirish, turizm eksportini esa 1,7 barobar ko‘paytirish vazifasi qo‘yildi. Xorijiy investitsiyalar hajmini 5 milliard dollarga, eksportni 1,2 milliard dollarga olib chiqish vazifasi belgilandi.

Yil yakunigacha ishsizlikni 3,5 foizga, kambag‘allikni 2,5 foizga tushirish, Namangan shahri, Davlatobod, Yangi Namangan, Namangan, Kosonsoy, Norin va Uychi tumanlarini ishsizlik hamda kambag‘allikdan xoli hududlarga aylantirish zarurligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Yig‘ilishda sun‘iy intellekt asosida hududiy salohiyatni chuqur tahlil qilish masalasiga ham alohida e’tibor qaratildi. Norin tumani misolida bu yil investitsiyani ikki karra, sanoatni 10,4 foizga va eksportni 35 foizga oshirish imkoniyatlari aniqlangan aytiladi. Endi ushbu yondashuvni viloyatning barcha tumanlariga tatbiq etish topshirildi.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash bugungi sharoitda eng dolzarb masalalardan biri ekanini qayd etildi. Shu bois, viloyatda kam samarali 2,5 ming gektar bog‘lar o‘rnida zamonaviy intensiv bog‘lar tashkil qilish va 8 ming gektar yerni o‘zlashtirish vazifasi qo‘yildi. Bu orqali qo‘shimcha daromad manbalari va yangi ish o‘rinlari yaratiladi.

Yig‘ilishda yirik investitsiya loyihalariga alohida e’tibor qaratildi. Jumladan, “Namangan” erkin iqtisodiy zonasining “Sabzazor” massivida umumiy qiymati 547 million dollarlik 15 ta loyihani to‘liq amalga oshirish uchun qo‘shimcha elektr podstantsiyasi qurish zarurligi ko‘rsatib o‘tiladi. Hozirgacha bu yerda 215 million dollarlik 7 ta loyiha ishga tushgan.

Shuningdek, qiymati 20 million dollar bo‘lgan zamonaviy IT-park binosini barpo etish taklifi bildirildi. Ushbu loyiha axborot texnologiyalari sohasiga xalqaro kompaniyalarni jalb qilish, yangi ish o‘rinlari yaratish, hududda raqamli transformatsiya, sun‘iy intellekt, elektron tijorat va startap ekotizimini jadal rivojlantirishga xizmat qilishi ta’kidlandi.

Davlatobod tumanini “Aqlli shahar”ga aylantirish, Namangan davlat texnika universitetiga qarashli bo‘sh obyektlar negizida sun‘iy intellekt ilmiy laboratoriyasi va startaplar klubini tashkil etish tashabbuslari ham muhokama qilindi. “Namangan — aqlli shahar” yagona raqamli platformasi orqali kommunal xizmatlar, chiqindilarni boshqarish, ekologik monitoring va transport tizimlarini bosqichma-bosqich integratsiya qilish rejalashtirilgan aytiladi.

Sanoat va tadbirkorlik bo‘yicha qator yangi tashabbuslar ko‘rib chiqildi. Jumladan, Chust tumanida quvvati 60 megavatt bo‘lgan yashil energiya loyihasini amalga oshirish uchun 24 gektar yer maydoni ajratish taklifi ilgari surildi. Chortoq tumanida algogolsiz salqin ichimliklar, sharbatlar va bolalar ozuqasi ishlab chiqarish korxonasi loyihasi taqdim etildi.

Qishloq xo‘jaligida ham katta xaziralar borligi ta’kidlandi. 2026-2027-yillarda yangi intensiv bog‘ va tokzorlar barpo etish tashabbuslari doirasida 3948 gektar maydonda bog‘ va tokzorlar tashkil qilish, 1,3 million dona ko‘chat ekish, 1,5 ming gektarda tomchilatib sug‘orishni joriy etish rejalashtirilgan.

Parrandachilik sohasida 50 million dollarlik yirik loyiha amalga oshirilishi, uning doirasida 813 million dona tuxum va 2 ming tonna go’sht ishlab chiqarish quvvati yaratilishi ma’lum qilindi. Bu viloyatning tuxumga bo‘lgan ehtiyojini to‘liq ta’minlash, Markaziy Osiyo va arab davlatlariga 42 million dollarlik parranda go’shti hamda tuxum mahsulotlari eksport qilish imkonini beradi.

Turizmni iqtisodiyotning drayver sohasiga aylantirish masalasi ham muhokamaning markazida bo‘ldi.

Viloyatni vadiy turizmi markaziga aylantirish maqsadida Pop tumanida “Arashan” ko‘llari atrofida zamonaviy va innovatsion turizm majmuasi, Qamchiq dovoni hududida “Qamchiq Mountain Resort” xalqaro ko‘p funksiyali tog‘ dam olish zonasi, Chodak qishlog‘i Guliston mahallasida turizm markazi, Kosonsoy tumani Olmazor mahallasida yirik turizm maskanini tashkil etish, Yangiqo‘rg‘on tumani Nanay hududida sun‘iy ko‘l loyihasini amalga oshirish taklif etildi.

O‘ZA

UCHINCHI UYG‘ONISH DAVRI POYDEVORINING MUSTAHKAM IKKI USTUNI



Ijtimoiy-siyosiy hayotimizda mart oyi tarixiy voqealarga boy bo‘ldi. Milliy va diniy qadriyatlarimiz bilan bog‘liq ayyomlar — muborak Ramazon hayati va Navro‘z bayrami keng miqyosda nishonlandi. Ushbu bayramlar xalqimiz uchun nafaqat diniy, balki madaniy va ijtimoiy ahamiyatga ham ega.

Ramazon hayati va Navro‘z kunlarida halollik, hamjihatlik, yaxshi amallar qilish, ehtiyojmandlarga yordam berish, mehroqibat kabi qadriyatlar alohida ahamiyat kasb etdi. Shu nuqtayi nazardan aytganda,

keyingi yillarda ma’naviy hayotimiz yuksak pog‘onaga ko‘tarilib, muqaddas dinimiz qadriyatlariga e’tibor tobora ortib borayotir.

Jumladan, davlatimiz rahbari g‘oyasi asosida Islom sivilizatsiyasi markazi buniyod

etilib, foydalanishga topshirilgan xalqimiz uchun chinakam ulkan ma’naviy hodisa bo‘ldi. Bu muhtasham maskan yurtimizning boy tarixi, bebaho ma’naviy merosi, asrlar davomida shakllangan ilm-ma’rifat an’analarning yorqin timsoli sifatida barpo etildi. Zero, muqaddas dinimiz insonni doimo ilm, ma’rifat, ezigulik va komillikka chorlab keladi.

Islom sivilizatsiyasi markazining ochilishi O‘zbekistonning madaniy va

intellektual diplomatiyasida muhim bosqich sifatida mamlakatni bilim, bag‘rikenglik va mulqot markazi sifatida namoyon qilishga qaratilgan keng ko‘lamli sa‘y-harakatlarini aks ettiradi. Prezidentimiz tashabbusi bilan ilgari surilgan loyiha BMT Bosh Assambleyasida taqdim etilganidan so‘ng mintaqadagi eng yirik madaniy tashabbuslardan biriga aylandi.

▶ Davomi 3-betda



Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, bugun sayyoramizning 2,2 milliard aholisi ichimlik suv ta’minoti tanqis bo‘lgan sharoitda yashamoqda. Bu raqam sizni biz suvni isrof qilmasdan, tejab-tergab ishlatishimiz zarurligini anglatadi. Zero, mintaqamiz iqlimi qurg‘oqchil bo‘lgani sababli suv resurslariga talab yil sayin ortib bormoqda.

Iqlim o‘zgarishlari, suv manbalari cheklangani va aholi soni o‘shishi sharoitida mavjud irrigatsiya tizimini tubdan modernizatsiyalash, suv tejoychi innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va bu jarayonga ilmiy yondashuvni qo‘llash strategik ahamiyatga ega.

Yurtimizning ko‘pgina hududlarida suv resurslari cheklanganligi va iqlim o‘zgarishining salbiy ta’siri aholi va qishloq xo‘jaligida suvdan samarali foydalanish masalasini har qachongidan ham dolzarb qilib qo‘ymoqda.

Prezidentimiz shu yil fevral oyida Surxondaryoga tashrifi chog‘ida ichimlik suv ta’minotidagi modernizatsiya ishlari bilan ham tanishdi. Yutuqlar tahlil etilib, viloyatda hali yechilmagan suv ta’minoti masalalarini tezkor hal etish bo‘yicha vazifalarni belgilab berdi. Xususan, eski nasos agregatlarini energiya tejamon texnologiyalarga almashirish, tarmoqlarni modernizatsiya qilish yuzasidan ko‘rsatmalar berildi.

▶ Davomi 2-betda

AYOLLAR VA BOLALAR HUQUQLARI HIMOYASI – BARQARORLIK KAFOLATI

Munosabat



Ubaydulla MINGBOYEV, O'zbekiston sudyalari assotsiatsiyasi raisi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yurist

Mamlakatimizda ayollar va bolalar huquqlarini ta'minlash, ularni har qanday tazyiq va zo'rovonlikdan himoya qilish hamda jamiyatda bunday illatlarga nisbatan murosasizlik muhitini shakllantirish maqsadida joriy yil 3-mart kuni Prezidentimizning "Ayollar va bolalar huquqlarining himoyasini kuchaytirish hamda ularga nisbatan tazyiq va zo'rovonlik holatlarining oldini olish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy-huquqiy choralar to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi.

Hujjatda bir qator muhim vazifalar belgilab berilgan. Xususan, nikoh yoshiga yetmagan shaxslar bilan nikoh munosabatlariga kirishish holatlari (erta nikoh)ning oldini olish, ayollar va bolalar nisbatan tazyiq hamda zo'rovonlik holatlariga yo'l qo'ymaslik, ot-onalarning voyaga yetmagan farzandlari uchun mas'uliyatini oshirish kabi tamoyillarni takomillatirish orqali bunday holatlarni keskin kamaytirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Farmonda nikohlanuvchilarni "maishiy zo'rovonlik" baxtli oilaviy hayotga tayyorlash" maxsus kurslarida bepul o'qitish, yoshlarni ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, joylarda huquqni muhofaza qiluvchi organlar, mahalla faollari va xot-qizlar tashkilotlari hamda ularning a'zolari mas'uliyatini oshirish kabi chora-tadbirlar ham nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar uchun sudlangan shaxslarga nisbatan jazoni kuchaytirish, ularni psixologik tuzatish dasturidan o'tmasdan yengillashtirilgan tartibda saqlash amaliyotiga chek qo'yish kabi muhim takliflar ma'qullangan. Muqaddam sudlangan shaxslar tomonidan bu kabi jinoyatlar qayta sodir etilsa, ularga nisbatan umrbod yoki uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish kabi qat'iy jazo choralarini belgilash masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Farmon mamlakatimizda ayollar va bolalar nisbatan zo'rovonlikka qarshi samarali chora-tadbirlar tizimini mustahkamlash bilan ahamiyatli. Endilikda har bir hududdagi ish hajmidan kelib chiqqan holda ayollar va bolalar bilan ishlash uchun kamida bitta tergovchi va sudya xalqaro standartlarga asoslangan dasturlarga muvofiq maxsus tayyorgarlikdan o'tkaziladi. Bu jarayonda ayol tergovchi va sudyalarga ustuvorlik beriladi va ular tomonidan ayollar va bolalarga nisbatan tazyiq va zo'rovonlikka oid ishlarning ko'rilishi ta'minlanadi.

Bu chora-tadbirlar jamiyatda ayollar va bolalar kamsitilishining oldini olishga, zo'rovonlik holatlarini sodir etishga moyil bo'lgan agressor shaxslar harakatini cheklashga xizmat qiladi. Natijada oila va xotin-qizlar maskanlari imkoniyatlaridan samarali foydalanish kengayadi.

Ayniqsa, voyaga yetmagan qizlarning hayot tarzi, jamiyatdagi o'rni, huquq va erkinliklarini ta'minlash kafolatlariga jiddiy ahamiyat berilgani quvonarli. Shu o'rinda bir diniy marosimda ulamolar tomonidan aytilgan ta'sirli ma'ruza yodimga tushdi. Unda qiyomat kumidagi hisob-kitob holati tasvirlanib, inson hatto o'z yaqinlaridan ham savob so'ray olmaydigan, faqat o'zi haqida qayg'uradigan og'ir holatlar haqida so'z borardi. Shunday paytda qiz bola otasiga murojaat qilib, o'z savobidan berishga tayyorligini bildiradi. Bu beqiyos mehr va fidoyilik uchun unga ilohiy rahmat nasib etishi haqidagi gaplar har bir tinglovchini chuqur o'ziga toldirgan edi o'shanda.

Bu hikoyadan anglash mumkinki, jamiyatning muhim bir bo'laki hisoblanadigan oilalarda o'sib-ulg'ayayotgan, xonadon ko'rki va oila quvonchi bo'lgan qiz farzandlari turli tazyiq va zo'rovonliklardan asrash har bir insonning nafaqat burchi, balki vijdoni oldidagi qat'iy talabdir. Zero, qiz farzandga munosabat jamiyatning ma'naviy darajasi va adolat tamoyillariga qanchalik sodiq ekanini namoyon etadi. Ularni asrash va qo'llab-quvvatlash orqali biz nafaqat bir inson taqdirini, balki kelajak avlod va sog'lom jamiyatni himoya qilgan bo'lamiz.

Shunday ekan, voyaga yetmaganlar hamda ayollar va xotin-qizlarga nisbatan munosabatda har bir inson o'z onasi, opa-singlisi yoki farzandiga bo'lgan mehr va hurmat bilan yondasha, jamiyatdagi ko'plab ko'ngilsiz holatlarning oldi olingan bo'lardi. Bu esa nafaqat jinoyatlar statistikasi kamayishiga, balki baxtli va mustahkam oilalar soni ortishiga ham xizmat qiladi.

MINTAQAVIY BIRDAMLIKDAN STRATEGIK SHERIKLIK VA ITTIFOQCHILIKKACHA



Bayrambek UZOQOV, mehnat faxriysi

Boshlanishi 1-betda

O'sha paytlari juda ko'p fuqaroligi bo'lmagan yurtdoshlarimiz biz bilan yonmay yashar edi. Hatto O'zbekistonda tug'ilib, Dushanbe yoki Olmatodagi oliy o'quv yurtlarini bitirib qaytgan hamyurtlarimizning fuqarolik olishiga hech kim yordam bera olmagani. Qozog'iston, Tojikiston va boshqa qo'shni davlatlardan kelin bo'lib tushganlar

Prezidentimizning siyosiy irodasi tufayli Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlarini o'tkazish an'anasi yo'lga qo'yildi. Bu format mintaqa tarixida ilk bor davlat rahbarlariga erkin, ochiq, ishonchli muloqot qilish imkonini berdi.

ham shu muammo bilan yashagan. Ular hech narsadan noqulaylik sezmagani. Ammo fuqaroligi yo'q shaxs sifatida yashagan, saylash va saylanish huquqiga ega bo'lmagan.

Aynan shunday o'ta murakkab sharoitda, ya'ni 2017-yili Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev BMTning yuksak minbarida turib, O'zbekiston tashqi siyosatidagi ustuvor vazifa Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalarni mustahkamlash, do'stlik, birodarlik rishtalarini tiklash, savdo-iqtisodiy, gumanitar aloqalarni rivojlantirish ekanini e'lon qildi. O'sha nutq bilan mintaqaning kelajagini o'zgartirgan tarixiy davrga qadam qo'yildi. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan qo'shnichilik munosabatlarini tiklash va mustahkamlash jarayoni boshlandi. Avvalo, chegaralarni ochish, xalqlar

Nuqtayi nazar

o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga e'tibor qaratildi. Qisqa muddatda chegara postlaridan o'tish jarayoni soddalashtirildi. Odamlar erkin qatnay boshladi. Savdo-iqtisodiy munosabatlar kengaydi. Madaniy aloqalar kuchaydi. Muhimi, mamlakatlar yetakchilari o'rtasida jonli, samimiy muloqot ko'paydi.

Prezidentimizning siyosiy irodasi tufayli Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlarini o'tkazish an'anasi yo'lga qo'yildi. Bu format mintaqa tarixida ilk bor davlat rahbarlariga erkin, ochiq, ishonchli muloqot qilish imkonini berdi.

O'tgan yili Toshkent shahrida bo'lib o'tgan navbatdagi Maslahat uchrashuvi ana shu jarayonning poydevorini mustahkamladi. Munosabatlardagi yangi bosqichni boshlab berdi. Bu galgi uchrashuvning ahamiyati yana bir jihat bilan boyidi — Ozarbayjon Markaziy Osiyo maslahat formatining to'laqonli ishtirokchisiga aylandi.

Bu o'zaro yaqinlashuvdagi yana bir qadam emas, butun mintaqaning geosiyosiy manzarasini kengaytiruvchi o'ziga xos jarayondir. Endi Qorabog'dan Kaspiyga, Kaspiydan Farg'ona vodiysi va Tyanshangacha cho'zilgan ulkan hamkorlik halqasi shakllanmoqda. Ushbu tarixiy jarayonlarning mantiqiy va amaliy davomi

sifatida O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston Respublikalari Prezidentlarining 2025-yil 31-mart kuni Xo'jand shahrida bo'lib o'tgan uch tomonlama sammiti alohida ahamiyat kasb etdi. Mazkur uchrashuv nafaqat uch davlat o'rtasidagi munosabatlarning yangi bosqichini belgilab berdi, balki butun Markaziy Osiyoda shakllanayotgan ishonch va hamjihatlik muhitining amaliy ifodasiga aylandi.

Ayniqsa, Prezidentimiz ilgari surgan ochiqlik, o'zaro ishonch va yaxshi qo'shnichilik siyosati bu sammitda yana bir bor o'zining hayotiy va samarali ekanini namoyon qildi. Chunki ilgari uzoq yillar davomida eng murakkab va hal etilishi qiyin bo'lgan masalalar aynan muloqot, siyosiy iroda tufayli bosqichma-bosqich o'z yechimini topmoqda.

Sammit doirasida O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston o'rtasida uch davlat chegaralari tutashgan nuqta to'g'risidagi shartnomaning imzolanishi tom ma'noda tarixiy voqea bo'ldi. Bu hujjat faqat geografik nuqtani belgilab berish bilan cheklanmaydi. U, eng avvalo, yillar davomida to'planib kelgan muammolarga siyosiy yechim topilgani, o'zaro ishonch tiklangani va kelajakka ishonch bilan qarash mumkinligining yorqin ramzidir.

Mazkur kelishuv chegara hududlarida yashovchi aholi hayotida tub burilish yasaganini bilan ahamiyatlidir. Ilgari turli cheklavlar, tushunmovchiliklar va xavotir sabab odamlar qiyinchiliklarga duch kelardi. Endi erkin harakatlanish, savdo-sotiq qilish, qarindosh-urug'lari bilan bemalol bordi-keldi qilish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Shuningdek, sammit yakunida qabul qilingan "Abadiy do'stlik to'g'risidagi Xo'jand deklaratsiyasi" nafaqat siyosiy hujjat, balki uch xalqning umumiy tarixi, madaniyati va qadriyatlariga tayangan holda kelajakni birgalikda barpo etishga qat'iy

irodaning ifodasi sifatida katta ahamiyatga ega. Ushbu deklaratsiya orqali davlatlar o'rtasidagi munosabatlar strategik sheriklik darajasiga ko'tarilib, barcha sohada uzoq muddatli hamkorlik uchun mustahkam huquqiy va siyosiy zamin yaratildi.

Xo'jand sammiti Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonini yangi mazmun bilan boyitdi. Avvalgi bosqichlarda asosiy e'tibor ishonchni tiklash va aloqalarni qayta yo'lga qo'yishga qaratilgan bo'lsa, endi bu jarayon aniq iqtisodiy, infrazuzilmaviy va gumanitar loyihalar orqali mustahkamlanayotgi. Xususan, transport yo'llarini rivojlantirish, chegarabo'yidagi savdoni kengaytirish, energetika va suv resurslaridan samarali foydalanish kabi masalalar kun tartibining ustuvor yo'nalishlariga aylandi.

Mazkur sammit o'tganiga bir yil to'ldi. O'tgan qisqa muddatda uning natijasini amalda ko'rish mumkin.

Chegara hududlarda iqtisodiy faollik ortdi, yangi savdo nuqtalari paydo bo'ldi, transport qatnovi ko'paydi. Muhimi, odamlar ongida "chegara" tushunchasi to'siq emas, balki hamkorlik va imkoniyatlar nuqtasi sifatida qabul qilinishi kuchaymoqda. Bu Markaziy Osiyoning kelajagi o'zaro raqobat emas, balki hamjihatlik, ochiqlik va strategik sheriklik ekanini yaqqol namoyon etmoqda. Xo'jand sammiti ana shu yangi davrning muhim ramziga aylandi.

Shu ma'noda, mazkur sammitni faqat bir voqea sifatida emas, balki butun mintaqa taraqqiyotini belgilab bergan muhim bosqich, davlatlar va xalqlar o'rtasidagi munosabatlarida yangi sahifa ochgan tarixiy burilish sifatida baholash to'g'ri bo'ldi.

Markaziy Osiyoda yuz bergan tub burilishlar tasodifiy emas. Bu puxta o'ylangan, izchil va pragmatik tashqi siyosat natijasidir. Ayniqsa, qo'shni davlatlar o'rtasida yillar davomida yechilmay kelgan murakkab masalalarga aynan muloqot, ishonch va siyosiy yondashuv orqali yechim topish amaliyoti joriy etilgani o'z samarasini bermoqda.

Bugun Markaziy Osiyoda nisbatan xalqaro qarash ham o'zgarib bermoqda. Ilgari mojaroli hudud sifatida qabul qilingan mintaqa endi barqarorlik, hamkorlik va o'sish nuqtasi sifatida e'tirof etilmoqda. Bu esa, shubhasiz, yuritilayotgan tinchlikparvar va pragmatik siyosat natijasidir.

Boshlanishi 1-betda

Shuningdek, mamlakatimiz yetakchisi 2025-yil 9-dekabr kuni qishloq xo'jaligi xodimlari bilan o'tkazgan muloqotida ham sohaning kelgusi rivoji uchun qator dolzarb vazifalarni belgilab bergan edi. Xususan, suv tejavchi texnologiyalarni keng joriy etish, sohaga ilmiy yondashish, fermer va dehqonlarga moliyaviy, huquqiy va texnik jihatdan qo'shimcha qulayliklar yaratish kabi masalalar ilgari surildi.

Bu kabi e'tibor tufayli raqamli texnologiyalar, suv taqsimotini avtomatlashtirish tizimlari joriy etilib, suv resurslaridan foydalanishda shaffoflik va samaradorlik ta'minlanmoqda.

Surxondaryoda markazlashgan ichimlik suv bilan qamrov sakkiz-to'qqiz yil oldin 47 foiz edi. Bugun ushbu raqam 67,5 foizgacha oshishiga erishildi. Ijtimoiy va hududiy dasturlar doirasida yangi loyihalar amalga oshirilishi bu boradagi katta siljishga sabab bo'ldi.

Jumladan, To'palang suv ombori bilan bog'liq yirik loyihaning qurilish-montaj ishlari boshlanganidan buyon jami 246 kilometr tarmoq tortilib, 8 ta ichimlik suv saqlash hovuzi barpo etildi. Birinchi bosqichda Sariosiyo, Denov, Sho'rchi va Qumqo'rg'on tumanlarida yashovchi qariyb 135 ming iste'molchi xonadoniga zilol suv kirib borgan bo'lsa, ikkinchi bosqich avvalida Oltinsoydagi 16 ta mahallaning 44 ming, Bandixon tumanidagi 17 ta mahallada yashovchi 42 ming 400 dan ortiq aholining obihayot ta'minoti tubdan yaxshilandi.

To'palang asosiy magistrat tarmog'idan qo'shimcha tarmoq tortib, Xo'jaipok magistrat tarmog'iga ulash orqali Qiziriq, Sherobod, Angor va Muzrabot tumanlarida istiqomat qiluvchi 193 ming yurtdoshimizning ichimlik suv bilan bog'liq muammolari yechildi.

— 21 ta ichimlik va oqova suv obyektida yangidan qurish va rekonstruksiya qilish ishlari bajarildi, — deydi Suv ta'minoti va oqova suv obyektlari qurilishi bo'yicha injiniring kompaniyasi bosh muhandisi Zokir Bo'tayorov. — Bu ishlar uchun 687,3 milliard so'm ajratilgan. Mazkur mablag' hisobidan 214,1 kilometr

Yangicha yondashuvlar SUVDAN SAMARALI FOYDALANISH HAR QACHONGIDAN-DA DOLZARB

ichimlik, 12,3 kilometr oqova suv tarmog'i tortildi, 8 ta suv inshooti qad rostladi.

Ma'lumotlarga ko'ra, ilgari aholi iste'mol qilgan obihayotning qattiqlik darajasi 7-8 milligramm-ekvivalentni tashkil etgan bo'lsa, o'z oqimi bilan keladigan To'palang suv ombori suvida bu ko'rsatkich atigi 3-4 milligramm-ekvivalentga teng. Bu esa endilikda iste'molchilarning foydali mineralarga boy ichimlik suvdan uzluksiz bahramand bo'lishini anglatadi. Albatta, musaffo, qattiqlik darajasi past obihayot iste'molchilar salomatligida muhim ahamiyatga ega. Shu kunlarda To'palang suvini vohaning Sherobod, Qiziriq va Angor kabi tumanlariga yetkazish maqsadida Jarqo'rg'on tumanida 20 ming kub metr sig'imiga ega suv saqlash hovuzini barpo qilish ishlari davom etmoqda.

Surxondaryo viloyatida suv ta'minotini yaxshilash faqat To'palang — Termiz megalyotibasi bilan cheklangani yo'q.

2025-yilda qilingan ishlar sarhisobiga ko'ra, Surxondaryo viloyati miqyosida 338 kilometr uzunlikda ichimlik suv tarmog'i tortildi, 54,5 kilometr tarmoq va 176 ta nasos profilaktik ko'rikdan o'tkazilib, ta'mirlandi. Mavjud ichimlik suv inshootlariga 83 ta energiya tejamar nasos o'rnatildi. 10 ming 551 ta iste'molchining tarmog'i xonadonlariga kiritildi. 34 ming 199 iste'molchiga suv hisoblash uskunalari qo'yib berildi.



Barcha mablag'lar hisobidan olib borilgan ishlar natijasida 145 ta mahalladagi 61 mingdan ortiq aholi ilk bor suv bilan ta'minlangan bo'lsa, 319 ming 500 yurtdoshimizning suv ta'minoti yaxshilandi.

Joriy yilda Surxon vohasida 273 ta mahalladagi 316,4 ming yurtdoshimiz markazlashgan ichimlik suv bilan ta'minlanadi, 757 ming kishining suv ta'minoti yanada yaxshilandi.

agrotexnologiyalarni tatbiq etish maqsadida tashkil etilgan "Suvchilar maktabi"da 2023-2025-yillar mobaynida soha olimlari ishtirokida 7800 fermer suv tejavchi texnologiyalar bo'yicha chuqur bilim va amaliy ko'nikmalar olib, maxsus sertifikatga ega bo'ldi, — deydi Amu-Surxon irrigatsiya tizimi havza boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Ne'mat Xudoyberganov. — Nafaqat mahalliy, balki Turkiya va Xitoyning suv tejavhdagi ilg'or tajribalarini keng o'rganish maqsadida o'quv jarayoniga bu davlatlardan yetakchi mutaxassislar ham jalb qilingan.

Joylardagi "Suvchilar maktabi" qishloq xo'jaligida suv tejamlorligini oshirish, hosildorlikni yaxshilash va soha kadrlari salohiyatini mustahkamlashda xizmat qilmoqda.

So'nggi yillarda Surxondaryo viloyatida ham magistrat va xo'jaliklararo kanallarning eskirgan qismlarini rekonstruksiya qilish, ularni betonlash va zamonaviy plyonkalar bilan qoplash jadal davom etyapti. Bu suvning filratsiya va bug'lanish orqali yo'qotishlarini keskin kamaytirib, yetkazib berish tezligini oshiradi. Natijada suv dalalargacha maksimal darajada va isrofsiz yetib bormoqda.

Farmer va dehqon xo'jaliklarida sug'orish texnologiyalari yangilanishi tuproq tarkibi buzilishi va sho'rlanish xavfini kamaytirib, yer unumdorligi uzoq muddatga saqlanib qolishiga zamin yaratadi.

2024-yilda 2700 gektar maydonda yangi sug'orish tizimlari ishga tushirilgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 3800 gektarga oshirildi.

— Avvallari asosan paxta va g'alla maydonlarida sinovdan o'tgan suv tejavchi texnologiyalar bugungi kunda bog'dorchilik, uzumchilik va poliz ekinlarida ham keng qo'llanilib, ijobiy samarasini ko'rsatmoqda. Bu tizimlar suv sarfini gektarida 30-70 foizgacha qisqartirish imkonini beradi. Suvning aniq me'yorda va to'g'ridan to'g'ri o'simlik ildiziga yetkazilishi hosildorlikni 1,5-2 baravar oshirib, mahsulot sifatini yanada yaxshilaydi, — deydi qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor Saydulla Boltayev.

Surxondaryo viloyatida 2025-yilda tomchilatib sug'orish texnologiyasi o'rnatish bo'yicha 7 ming gektar maydonga, klaster va fermerlar bilan 6,8 ming gektar uchun shartnomalar rasmiylashtirilgan.

— E'tiborga molik jihatida, 3827 gektar bog', tok va boshqa ekin maydonlariga ham tomchilatib sug'orish texnologiyasi joriy etilgan. Bu esa texnologiyalar keng diversifikatsiya qilinayotganidan dalolat beradi. Yomg'irlatib sug'orish bo'yicha reja 3100 gektar bo'lsa-da, talabgorlar tomonidan 3885 gektar uchun shartnomalar tuzilgan, — deydi Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi Surxondaryo mintaqaviy markazi direktori Oybek G'ulomov. — Surxon vohasida yana 41,7 ming gektar maydonda suv tejavchi texnologiyalarni joriy etish bo'yicha rejalari belgilangan. Bunda 6,7 ming gektar tomchilatib, 8 ming gektar yomg'irlatib sug'orish, shuningdek, 17,7 ming gektarda lazerli tekislash kabi ishlar davom ettiriladi.

Mamlakatimizda suv tejavchi texnologiyalarni joriy etishda tijorat banklari va fermerlarning o'z mablag'lari hisobidan katta investitsiyalar kiritilishi suv resurslaridan oqilona foydalanish va hosildorlikni oshirish uchun mustahkam poydevor yaratayotir. Bu esa yurtimiz hududlarining agrar salohiyatini yanada yuksaltirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Sarvar TO'RAYEV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Yangi O'zbekiston ruhi



UCHINCHI UYG'ONISH DAVRI POYDEVORINING MUSTAHKAM IKKI USTUNI



Ismoil SAIFNAZAROV, falsafa fanlari doktori, professor

Boshlanishi 1-betda

Xastimom me'moriy majmuasiga yondosh joylashgan ushbu markaz o'zida muzei emas. U tadqiqot, ta'lim, konservatsiya va jamoatchilik bilan mulqotni qamrab olgan ko'p funksiyali platformadir. Markazning arxitekturasida va ekspozitsiyalarida islom sivilizatsiyasining Oltin asri bilan Yangi O'zbekiston g'oyasini uyg'unlashtirib, intellektual va ma'naviy an'analarning uzviy davomiylikni ifoda etadi.

Markazning yuragi Qur'on zalidir. Bu yerda dunyodagi eng qadimiy nusxalardan biri — Usmon Mus'hafi saqlanadi. Shuningdek, islom ilmi va xattotlik san'atining rivojlanishini ko'rsatuvchi noyob to'plam taqdim etilgan. Ushbu bebaho durdonaning ahamiyati milliy chegaralardan ancha keng. U islomni bilim, insonparvarlik va ilmiy taraqqiyot manbai sifatida qayta talqin qiladi. Shu bilan birga, Markaziy Osiyoning sivilizatsiyalarini ko'rsatuvchi tarixiy o'rinini tiklaydi. Inklyuzivlik va mulqotga asoslangan zamonaviy madaniy diplomatiya modelini namoyon etadi.

Islom sivilizatsiyasi markazi O'zbekistonning kengroq mintaqaviy va global strategiyasini ham aks ettiradi. Madaniyat, ta'lim va xalqaro hamkorlikning asosiy ustunlariga aylangan. ICESCO, IRCICA, Islom hamkorlik tashkiloti va Oksford islom tadqiqotlari markazi kabi nufuzli tashkilotlar markazda faoliyat yuritishi rejalashtirilgan. Bu esa uni global tadqiqot va madaniyatlararo mulqot markaziga aylantiradi.

Bu joy o'zida madaniy muassasa emas, balki strategik va sivilizatsion ahamiyatga ega loyiha. O'zbekistonning islom va insoniyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasini dunyo miqyosida qayta namoyon etadi. Zaminimiz asrlar davomida jahon tamaddunining muhim markazlaridan biri sifatida islom madaniyati va ilm-fani rivojida beqiyos o'rin tutib kelgan. Buyuk mutafakkirlar, alloma

va muhaddislar yetishib chiqqan bu tuproqda boy ma'naviy meros shakllangan. Ana shu ulkan merosni asrab-avaylash, chuqur o'rganish va keng jamoatchilikka yetkazish maqsadida barpo etilgan O'zbekistonda Islom sivilizatsiyasi markazi bugun nafaqat milliy, balki xalqaro ahamiyatga ega ilmiy-ma'rifiy maskan sifatida namoyon bo'lmog'ida.

Geosiyosiy beqarorlik va iqtisodiy muammolar yuz berayotgan pallasda O'zbekiston o'zining madaniy va strategik ta'sirini kuchaytirish orqali muhim qadam tashladi. Islom sivilizatsiyasi markazi mamlakatimizning boy tarixiy merosi va butun Yevroosiyo bo'yab islomiy intellektual va madaniy an'analarni shakllantirishdagi mavqeiini namoyish etadigan muhim loyihaga aylangan. Shiddatli texnologik o'zgarishlar va global keskinliklar davrida ushbu markaz, avvalo, musulmon dunyosida konstruktiv mulqot maydoni bo'lib, Markaziy Osiyoning bag'rikeng, ma'rifati islom modelini ilgari surish uchun keng imkoniyat yaratadi. Ikkinchidan, mamlakatning islom sivilizatsiyasi merosini targ'ib qilish O'zbekistonning Yevroosiyo markazini Yaqin Sharq va Janubiy Osiyo bilan bog'laydigan madaniy va diplomatik ko'priki sifatida o'zini mustahkamlaydi, mintaqaviy aloqalar rivojiga hissa qo'shadi.

Markaz madaniy vazifadan tashqari, radikallashuvga qarshi kurashish, inklyuziv islomni targ'ib qilish, mintaqaviy barqarorlik va xalqaro tinchlik asosidagi me'yorlarni targ'ib qilish uchun faol platformaga aylandi. U tarixiy meros mamlakatning strategik ta'sirini kuchaytiruvchi vositaga aylinishi mumkinligini namoyish etmoqda. Yangi inshooting ochilishi O'zbekistonning xalqaro maydondagi o'zini va nufuzi oshib borayotgan, dunyoda ishonchli hamkor sifatidagi roli ortayotganini ham tasdiqlaydi. Shu bilan birga, mamlakatimiz geografik markazlashuvi, demografik salohiyati va islohotlar kun tartibidan iqtisodiy ochiqlik, mintaqaviy xavfsizlik va madaniy yetakchilikni ilgari surish uchun foydalanmoqda.

Yangi majmuaga bugun musulmon Sharqida yana bir Renessans boshlanayotganidan dalolat beradi. O'zbekiston hozirga qadar Birinchi va Ikkinchi Renessansga beshik bo'lgan tabarruk zamin. Shu bois, dunyoning istalgan burchagida islom haqida so'z ketganda, zaminimizdan yetishib chiqqan buyuk allomalar — Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Imom Nasafiy, Imom Termiziy birinchi galda tilga olinadi. Bu o'lkani ilm-ma'rifat tarixidagi tamal toshi, shubhasiz, mustahkam.

Muhtasham majmuaga qadimiy va milliy me'morchilik an'analari asosida qurilgan. Unga to'rt tomondan to'rt asosiy portal orqali kirish mumkin. Ushbu portallar va binoning tashqi ravoqlari ilm-ma'rifat, bag'rikenglik, insoniylik va ota-onaga hurmat mazmunidagi o'yatlar hamda hadislar bilan bezatilgan.

Ichkarisida esa eng zamonaviy texnologiya keng qo'llangan. Virtual va kengaytirilgan reallik, sun'iy intellekt hamda gologramma yordamida qadimiy qo'lyozmalar "jonlantirildi", tarixiy ilmiy muhit raqamli shaklda qayta tiklanadi. Tomoshabin bevosita jarayon ishtirokchisiga aylandi, buyuk olimlar bilan virtual mulqot qilib, ilmiy tajriba muhitini his etadi. Yosh avlodga ham alohida e'tibor qaratilgan. "1001 ixtiro" laboratoriyasi orqali bolalarda ilm-fan, texnika va muhandislikka barvaqt qiziqish uyg'otish maqsad qilingan. Bu ham kelajak avlodning intellektual salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, majmuaga faqat ko'rgazma maydoni emas, balki yirik ilmiy-ta'lim maskani hamdir. Bu yerda ulkan kutubxona, restavratsiya laboratoriyalari, xattotlik maktabi

ekspertlari va mutaxassislari markazni islom sivilizatsiyasi ilmiy merosini zamonaviy texnologiya orqali jahonga taqdim etuvchi yangi platforma deb atayapti. Ayni vaqtda ko'pchilik uni madaniy diplomatiya va turizm salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi strategik obyekt sifatida ta'rifi qilmog'ida.

E'tiborlisi, loyiha ustida 40 dan ortiq mamlakatdan 1500 ga yaqin mutaxassis ishtirok etgan. Islom sivilizatsiyasi markazi o'z davrida Markaziy Osiyoni dunyoning yetakchi ilm-fan markazlaridan biriga aylantirgan muassasalar an'anasini davom ettirgan Xorazmdagi Ma'mun akademiyasi yoki Samarqanddagi Ulug'bek madrasasi kabi boy intellektual merosni qayta tiklash va o'rganishda muhim maskan vazifasini o'tashi kutilmoqda. Bu holat Toshkent shunchaki yangi muzeyni taqdim etmayotgani, balki o'zining ilm-fan chorrahasi sifatidagi tarixiy maqomini qayta tiklashga urinayotganini ko'rsatmoqda. Markazning BMT Sivilizatsiyalar alyansi bilan imzolagan memorandumini esa uning global miqyosdagi ma'rifiy va gumanitar ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

kengaymoqda. Xususan, dunyoning eng yirik kitob va san'at auktsionlarida sotuvga qo'yilgan qo'lyozma va toshbosma asarlar xarid qilinmoqda. Yevropa, Osiyo va arab davlatlaridagi kutubxona va arxivlar bilan hamkorlik qilinib, allomalarning asarlarining nusxalari va ilk nashrlari olib kelinmoqda. Ko'plab kolleksionerlar va jaddilar avlodlari o'zida saqlanib qolgan nodir manbalarni markazga taqdim etmoqda.

Kutubxonada nafaqat jaddilar, balki Muhammad Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Imom Buxoriy kabi buyuk mutafakkirlar tashkil etgan ilmiy maktablar bo'yicha ham alohida bo'limlar mavjud. Bu yerda ularning asarlariga yozilgan sharhlar va zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning to'planishi Birinchi, Ikkinchi va Uchinchi Renessans o'rtasidagi ma'naviy ko'priki mustahkamlaydi. Bu kutubxona shunchaki kitob saqlash joyi emas, balki millatning "genetik kodi"ni asrovchi xazinadir. Jadid bobolarimiz aytganidek, "Najot — ta'limga, najot — tarbiyaga, najot — bilimda".

Bugun markazda to'planayotgan har bir nodir qo'lyozma va kitob O'zbekistonning yorug' kelajagi uchun xizmat qiladigan ilm bulog'idir. Ma'rifatparvar ajdodlarimizning merosini o'rganish va xalqqa yetkazish bizning nafaqat qazimimiz, balki yangi O'zbekistonning buyuk kelajagiga qo'yilgan eng katta sarfomaga.

Qaytadan bunoyd etilgan Imom Buxoriy majmuasi esa barcha mo'min-musulmonlar uchun eng munosib tuhfa bo'ldi. Yurtimizda rivojlangan davlat, erkin jamiyat poydevorini bunoyd qilish uchun, eng avvalo, ilm va ta'lim degan oliy maqsad hayotga joriy etilmog'ida. Zero, muqaddas islom dini insonni doimo ilmu ma'rifatga da'vat etadi.

Imom Buxoriy majmuasi buyuk ajdodimiz nomiga munosib muhtasham ziyoratgohga aylandi. Majmuaga kirganlar allomani nafaqat ziyorat qilsin, balki u zot qoldirgan ulkan ilmiy va ma'naviy merosni o'rganib debir go'zal muzey ham barpo etildi. Aniqrog'i, o'zida muzei emas, katta bir ilmiy majmuaga bunoyd bo'ldi.

Ikkala bo'z tal inshoot mohiyatida otabobolardimizning ham islomga, ham dunyo tamadduniga qo'shgan hissasini aks etib turibdi. Ushbu ilm-ma'rifat, tinchlik va ezigulik majmualari mamlakatimizda yangi bir uyg'unish — Uchinchi Renessans davri poydevorini yaratish g'oyasining hayotga ichkil tabiiq qilinayotganidan yana bir nishonadir. Bu obidalar xalqimizning intellektual salohiyati, ma'naviyati yanada yuksalishi, boy merosi yanada chuqur o'rganilishi



va zamonaviy raqamli arxiv faoliyat yuritadi. Hudduda qator nufuzli xalqaro tashkilotlar vakolatxonalarini joylashgani xalqaro ilmiy markaz ahamiyatini yanada oshiradi. Umuman, majmuani Markaziy Osiyodagi eng yirik madaniy-ilmiy loyihalardan biri sifatida baholash mumkin. Shu sababli dunyo

Islom sivilizatsiyasi markazi kutubxona fondini boyitish ishlari davlat darajasidagi strategik vazifa sifatida amalga oshirilmoqda. Markaz jamoasi buyuk allomalarning dunyo bo'ylab sochilib ketgan ilmiy merosini qaytarish ustida tinimsiz ishlamoqda. Bugun kutubxona fondi qator manbalari hisobiga muntazam



va dunyo miqyosida e'tirof etilishiga hissa qo'shishi shubhasiz.

Qisqasi, yurtimizda fuqarolar diniy erkinligini ta'minlash, bag'rikenglik, islom ma'rifati g'oyasini targ'ib qilish borasida keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda. Yangi masjidlar, ulug' ajdodlarimiz nomi bilan atalayotgan majmualar barpo etilmog'ida, diniy ta'lim muassasalari ochilyapti. Sohada xalqaro hamkorlik tobora rivojlanib, chet elik taniqli ulomlar tez-tez diyorimizga tashrif buyurmog'ida, nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan aloqalar mustahkamlayapti. Bularning barchasi yurtdoshlarimizga cheksiz quvonch va o'zgacha g'urur bag'ishlaydi.

Bugun dunyoda tinchligi va xotirjamligini yo'qotgan mamlakat va u yurtlarda istiqomat qilayotgan insonlar hayoti, ta'bir joy bo'lsa, nurini yo'qotgan, zimistonda qolgan o'xshaydi. Bu voqealarni ko'rib, ehsitib turgan insonlar ibrat olib, xulosa chiqarib, o'zlarini uchun in'om qilingan tinchlik va xotirjamlikni qadrlashi, asrab-avaylashi lozim.

Shuning uchun ham biz yurtimizda hukm surayotgan tinchlik, xotirjamlikni saqlash, turli g'arazli xuruj va hamlalardan, fitna va bo'htonlardan himoya qilish, g'arazli va manfur kimsalarning makr va puch g'oyalari uchmasdan, aldanmasdan, yoshlarimizni ham ularidan xabardor qilib, islom madaniyatining ezgu g'oyalarni keng targ'ib etishni dolzarb vazifa sifatida bilmog'imiz lozim.

Islohotlar ostonasi

Prezidentimizning "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga ko'ra, "mahalla budjeti" tizimi joriy etildi. Endi fuqarolar to'lagan mol-mulk va yer soliqlarining 10 foizi har bir mahalla uchun ochilgan hisobraqamlarga yo'naltirilmoqda. Mablagning to'g'ri va maqsadli sarflanishini esa "mahalla yettilligi" nazoratga olgan.



— Mahallamiz tuman markazidan uzoqda joylashgan, — deydi Bag'dod tumanidagi "Navro'z" mahalla fuqarolar yig'ini raisi Zaylobiddin Shukurov. — Yaqingacha mahalla

farovonligi bilan bog'liq biror xarajatli ish chiqsa, mablagni qayerdan olishni, kimdan so'rashni bilmasdik. Mana, muammo hal bo'lyapti. Hozirgacha mahallamiz byudjetida 36 million

HAR BIR MAHALLANING O'Z MABLAG'I BOR

so'mdan ortiq mablagni yig'ildi. Mahalladoshlar bilan kengashib, 8 million so'mni yakka-yolg'iz, kam ta'minlangan, ijtimoiy himoyadagi oilalarning uy-joyini ta'mirlashga sarfladik. 3 million so'mga hudud nazorati uchun kamera o'rnatdik. Mahalla kutubxona fondini boyitish uchun qariyb 1 million so'mlik adabiyotlar xarid qildik. Bundan tashqari, mahallaning moddiy-texnik ta'minoti yaxshilandi. Zamonaviy isitish tizimlari o'rnatildi. Qulay jihati, jamg'armazida ishlaltilmay qolgan mablagni saqlanadi. Ya'ni o'tgan yili foydalanilmagan pulni bu yil jamg'arilgan mablagni bilan qo'shib, katta loyihaga yo'naltirish mumkin.

Mazkur loyihadan ko'zlangan maqsad mahallabay ishlash tizimini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan. Xususan, jismoniy shaxslar to'laydigan mol-mulk va yer solig'ini yig'ish ko'rsatkichini oshirishdir. Muhimi, shu orqali yangi ijtimoiy loyihalar uchun qo'shimcha mablagni jalb etiladi. Sodda qilib aytganda, mahalla faollari mol-mulk va yer solig'i o'z vaqtida to'lanishi uchun aholi orasida o'tkaziladigan targ'ibotlarda qatnashar, ammo bundan tegishli manfaatdor emas edi. Endi ularning ayni xizmatlari uchun aholidan yig'ilgan soliqlarning bir qismi mahallaning o'zida qoldirilgan bo'ldi.

— Har bir mahallaning o'z mablagniga ega bo'lishi mazkur tuzilmani aholiga yanada yaqinlashtirdi, imkoniyatlarini kengaytirdi, — deydi Rish-ton tumanidagi "Oqtomir" mahalla

fuqarolar yig'ini raisi Rustamjon Toshpo'latov. — Mahallamizda 4580 kishi yashaydi. Joriy yilda 600 million so'mdan ortiq soliq tushumini yig'ish uchun targ'ibotni boshlab yuborganmiz. Soliqlar o'z vaqtida yig'alsa, jamg'armamizga 60 million so'm mablagni beriladi. Buning hisobidan tungi yoritkichlar, kuzatuv kameralari, yo'l chetiga lotoklar o'rnatish, piyodalar yo'lagi qurish, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini qo'llab-quvvatlashdek ezgu ishlarni reja qilganmiz. Mahallamiz kundan kun obod bo'lib bormog'ida. O'tgan yili "Tashabbusli budjet"ning ikkinchi mavsumida g'olib bo'ldik va ichki yo'llarning muayyan qismi asfaltlanishiga erishdik.

"Mahalla budjeti" tizimi joriy etilishi hududlar obodligiga katta hissa qo'shmoqda. Aholi kundalik hayotida muhim bo'lgan infratuzilmaning samaradorligini oshirish imkonini bermog'ida.


— O'tgan yili viloyatimizdagi 1063 mahalla fuqarolar yig'ini uchilgan jamg'armalarga 42,3 milliard so'm kelib tushdi, — deydi O'zbekiston mahallalari uyushmasi Farg'ona viloyati boshqarmasi boshlig'i Adhamjon Ziyovuddinov. — Bu mablagning asosiy qismi kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash, binolar, yo'l, suv, elektr va boshqa infratuzilma tarmoqlarni ta'mirlash kabi ishlarga sarflanmoqda. Umuman, mahallalarning faoliyatiga bevosita daxldor zamonaviy yondashuvlar yutuqlar ko'lamini oshirmog'ida.



Birgina "Raqamli mahalla" platformasi orqali joriy yilning o'tgan davrida viloyatda 9000 dan ziyod ishsiz fuqaroning bandligi ta'minlandi. 2500 dan ko'proq oila kambag'al oilalar reyestridan chiqarildi. Kambag'allik darajasi yuqori, "og'ir" toifadagi 110 mahalla hamda 4 ta hududda "yettillik" hamkorligida tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha loyihalar paketi shakllantirildi. Shuningdek, 300 kilovatt quvvatli kichik fotelekr stansiyalari qurish

uchun zarur yer maydonlari aniqlab olindi. Hududlarda ijobiy natija bergan yuqori daromadli tajribalar og'ir mahallalarga ko'chirilib, kamida 50 ta xonadonni bir yo'nalishda ixtisoslashtirish choralarini ko'rilmog'ida. Viloyatimizdagi 13 ta mahalla fuqarolar yig'ini uchun yangi binolar qurilishi boshlangan.

Rasuljon KAMOLOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



Davlatimiz rahbarining 2026-yil 5-fevraldagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida maktabgacha ta'lim tizimiga xususiy sektorni faol jalb qilish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Ayniqsa, qamrov darajasi past bo'lgan tuman va shaharlarda tadbirkorlar uchun keng ko'lamli iqtisodiy va moliyaviy imtiyozlar joriy etildi.



Taraqqiyot odimlari

JAMIYAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGI



Bu chora-tadbirlar orqali davlat maktabgacha ta'lim xizmatlarini rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik tamoyilini kuchaytirish, yangi bog'chalar sonini oshirish hamda bolalarni ta'lim bilan qamrab olish darajasini barqaror yuksaltirish maqsad qilindi.

Farmonga muvofiq, bugun — 1-apreldan boshlab maktabgacha ta'lim qamrovi 80 foizdan past bo'lgan tuman (shahar)larda davlat maktabgacha ta'lim va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining bo'sh yer maydonlarida davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat bog'chalar tashkil etgan tadbirkorlarga bir qancha imtiyozlar berildi. Shuningdek, ularga qator qo'shimcha imkoniyatlar yaratildi. Jumladan, yer maydoni uchun ijara to'lovlari 30 yil davomida undirilmaydi, muddat tugagach, mazkur bog'cha davlat balansiga o'tkaziladi. Har bir bola uchun davlat bog'chasida sarflanadigan xarajatning 50 foiz miqdorida subsidiya elektron davomat asosida ajratiladi. Bu mexanizm tadbirkor uchun moliyaviy xafvni kamaytiradi, davlat uchun esa yangi ta'lim tashkilotlarini qisqa muddatda tashkil etish imkonini beradi.

Farmonda davlat-xususiy sheriklikdan tashqari mustaqil xususiy bog'chalar tashkil etuvchi tadbirkorlar uchun ham katta imtiyozlar belgilandi. Xususan, quvvati 150 o'rindan kam bo'lmagan nodavlat bog'cha qurish uchun 7 yilgacha muddatga 5 milliard so'mgacha kredit ajratiladi. Kredit foizi Markaziy bank asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori qilib belgilanadi. Yer

uachstkalari auktsion orqali ajratiladi va har yili hududlar bo'yicha maqbul yerlar ro'yxati e'lon qilib boriladi.

Hujjatda nodavlat bog'chalarda ishlaydigan tarbiyachilarni qo'llab-quvvatlash ham nazarda tutilgan. Xususan, bog'cha faoliyati yo'lga qo'yilgandan so'ng 3 yil davomida tarbiyachilarning oylik ish haqi davlat bog'chalarida belgilangan miqdorda davlat byudjeti hisobidan qoplab beriladi. Har 30 bolaga bir shtat birligi hisoblanadi, mablag'lar elektron davomat tizimi orqali yo'naltiriladi.

Yana bir yangilik Soliq kodeksiga o'zgartirish kiritilishi bilan bog'liq. Jumladan, 2030-yilga qadar ijtimoiy soliq stavkalari keskin pasaytirildi. Mazkur ko'rsatkich qamrovi 70-80 foiz bo'lgan hududlarda 5 foiz, qamrovi 70 foizdan past hududlarda 1 foiz etib belgilandi. Shuningdek, yangi qurilayotgan ko'p qavatli uylarning birinchi qavatida bog'cha ochgan tadbirkorlar uchun ham 3 yil davomida 5 foizli ijtimoiy soliq stavkasi joriy etiladi.

Eng muhimi, farmonda belgilangan, xususiy sektorni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan imtiyozlar maktabgacha ta'lim sohasida tub burilish yasadi. Yer, moliya, soliq va kadrlar bo'yicha yaratilgan qulayliklar tadbirkorlarni sohaga faol jalb etib, ta'lim qamrovini kengaytirishga xizmat qilaydi. Bu islohotlar orqali maktabgacha ta'lim tizimi faqat davlat mas'uliyati emas, balki jamiyat va xususiy sektor hamkorligida rivojlanadigan strategik sohaga aylanmoqda.

Sherali IKROMOV,
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi departament direktori

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI GLOBAL MAYDONDA

Jahon taraqqiyotining bugungi bosqichida har bir davlatning kuch-qudrati, avvalo, uning intellektual salohiyati va bilimli avlodni tarbiyalash imkoniyati bilan belgilanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, mamlakatimizda ta'lim tizimi, ayniqsa, uning eng asosiy va hal qiluvchi bo'g'ini — maktabgacha ta'limga qaratilayotgan e'tibor har qachongidan ham oshgan. Ayni yo'nalishdagi sa'y-harakat va intilishlar samarasi 'laroq, O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli va izchil islohotlar xalqaro miqyosda ham e'tirof qozonmoqda.

Xususan, nufuzli UNESCO tashkiloti sohadagi yutuqlarimizni yuqori baholadi. Parij shahrida o'tkazilgan "2026-yilgi Global ta'lim monitoringi" tadbirlarida O'zbekiston tajribasi ilg'or namuna sifatida qayd etildi. Unda mamlakatimizda maktabgacha ta'limni rivojlantirish, qamrovni oshirish va innovatsion yondashuvimiz joriy etish borasidagi yutuqlar yuqori baholandi. Ayniqsa, tashkilot Bosh qarorgohida qabul qilingan qaror — O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutiga tashkilotning 2-toifali instituti maqomi berilishi alohida voqea bo'ldi.

Shu bilan birga, 2025-yil noyabrda Samarqandda UNESCO Bosh konferensiyasi 43-sessiyasining ochilish marosimi doirasida Prezidentimiz ilgari surgan tashabbuslarga xalqaro hamjamiyat yana bir bor diqqat qaratdi. Tadbir davomida davlatimiz rahbari maktabgacha ta'lim sohasidagi islohotlarning ahamiyati va kelgusidagi rivojlanish imkoniyatlarini ta'kidlagan edi. Uchrashuv mobaynida YUNESKO Bosh direktori Hoshim al-Anani ham, o'z navbatida, davlatimiz rahbarining tashkilot bilan hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan sa'y-harakatlarini alohida ta'kidlab, xalqaro ta'lim, madaniyat va fan sohalaridagi tashabbuslarni yuqori baholagan. O'zbekistonda ishonchli va faol hamkor sifatida e'tirof etgan edi.

Tashkilot faoliyati inson taraqqiyotining eng muhim jabhalari — ta'lim, ilm-fan va madaniy merosni asrashni qamrab oladi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim masalasi doimiy diqqat markazida. Chunki insonning qognitiv, ijtimoiy va emosional rivojlanishining asosiy qismi aynan erta yoshda shakllanadi.

E'tirof



Shu bois, UNESCO erta yoshdagi bolalarni asrash dasturini global darajada ilgari surmoqda. Bu dastur doirasida bolalar uchun xavfsiz, inklyuziv va rivojlantiruvchi muhit yaratish, tarbiyachilarning kasbiy salohiyatini oshirish hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish ustuvor vazifalardan.

O'zbekiston maktabgacha ta'lim sohasida aniq va tub burilish kuzatildi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutining xalqaro maqomga ega bo'lishi esa uning faoliyatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. Endi u nafaqat milliy, balki mintaqaviy darajada ham yetakchi markazga aylanadi. Bu yerda ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish va mutaxassislar tayyorlash bo'yicha keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Mazkur hamkorlik uqlari esa o'zbekistonlik pedagoglar uchun yangi istiqbolarni ochadi. Ular xalqaro standartlar asosida malaka oshirish, dunyo tajribasini o'rganish va

bilimini yanada boyitish imkoniga ega bo'ladi. Shuningdek, milliy tajriba xalqaro maydonda keng targ'ib etiladi.

Mutaxassislarining ta'kidlashicha, maktabgacha ta'limga kiritilgan sarmoya eng samarali investitsiyadir. Chunki bu bosqichda bolaning fikrlash qobiliyati, ijtimoiy ko'nikmalari va shaxsiy fazilatlarini shakllanadi. Shu bois, UNESCO tomonidan o'yin orqali ta'lim berish, ijodiy fikrlashni

rivojlantirish va individual yondashuvni ta'minlash kabi innovatsion usullar keng targ'ib etilmoqda. Yurtimizda ham aynan shu tamoyillar asosida ta'lim jarayoni tashkil etilmoqda. Bolalarning qiziqishi, qobiliyat va ehtiyojlarini hisobga olgan holda zamonaviy dasturlar ishlab chiqilyapti.

Xususan, inklyuziv ta'limni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib, imkoniyati cheklangan bolalar uchun ham teng-sharoit yaratilmoqda. Shuningdek, qishloq hududlarda maktabgacha ta'limni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Mobil bog'chalar, qisqa muddatli guruhlar va innovatsion ta'lim shakllari joriy etilayotgani ayni jarayonning amaliy ifodasidir. Demak, UNESCO bilan samarali hamkorlik mamlakatimiz maktabgacha ta'lim tizimi rivojida yangi bosqichni boshlab bermoqda. Bu esa kelajakda bilimli, keng dunyoqarashli va raqobatbardosh avlodni tarbiyalashda mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Habib ABDUNAZAR,
jurnalist

Qangli Amudaryo tumanining eng chekka ovullaridan. U Turkmanistonning Toshhovuz viloyati bilan chegaradosh. Ovulda qariyb 3500 kishi istiqomat qiladi. Ularning yarmidan ko'pi 30 yoshgacha bo'lganlar. Aholisi sodda va samimiy, mehnatkash, doim yangilikka intilib yashaydi. Bugun bu yerda davr talabiga mos o'zgarishlar, yangilanishlar ro'y bermoqda.

Farovonlik xaritasi

"Qangli" ovul fuqarolar yig'inidagi "mahalla yettilligi" kam ta'minlangan hamda ehtiyojmand oilalarni qo'llab-quvvatlash borasida tizimli ishlarni bajarmoqda. Jumladan, Ijtimoiy reyestrda turgan Gulnora Rajapovaga homiylik bir sotixli issiqxonaga qurib berdi. Bugun mazkur issiqxonaga oilaning barqaror daromad manbaiga aylanib, turmush sharoitini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Tadbirkor Anvar Muratov 2025-yili ikki qavatli tadbirkorlik obyekti qurilishini boshlagan edi. Hozir u foydalanish arafasida. Yangi majmua ish boshlashi bilan ovul hududida xizmat ko'rsatish sohasi yanada rivojlanadi. Hududning o'zida turli maishiy xizmatlar ko'rsatish fuqarolarga qo'shimcha qulaylik tug'diradi.

Ovulimizning asosiy drayveri chorvachilik, parrandachilik va asalarichilik. 300 dan ziyod kishi tadbirkorlik bilan band. Aholining bir qismi mavsumiy ishlar bilan shug'ullanadi. 100 dan ko'p fuqaro o'zini o'zi band qilgan. Ochig'ini aytish kerak, 700 dan ziyod ishsiz fuqaromiz bor. Ularga yangi ish o'rnlari ochish, kasbga o'qitish va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilayapti, — deydi "Qangli" ovul fuqarolar yig'ini raisi Ulug'bek Allambergonov. — Qishloq xo'jaligi ovul aholisi turmushida alohida o'rin tutadi. Aholi ixtiyorida umumiy tomorqa maydoni 162 gektardan iborat. 628 ta xonadon egasi shaxsiy tomorqaga ega. Qo'shimcha dala tomorqasi borlar ham oz emas. 10 ta xonadonda issiqxonaga tashkil etilgan. Ovuldagi 519 xonadonda 34 ming 200 dan ziyod parranda parvarishlanmoqda. 11 ta oila asalarichilik, 2 ta oila esa baliqchilik bilan mashg'ul.

Chorvachilik bilan samarali shug'ullanayotgan Rufat Saparov oilasining farovonligiga munosib hissa qo'shmoqda. Kelgusida bankdan kredit olib, faoliyatini yanada kengaytirishni rejalashtirgan. — Ovulimizda 10 ta savdo do'koni, 4 ta



G'OYA VA TASHABBUSLAR LOYIHAGA AYLANMOQDA Loyihalar esa amaliyotga tatbiq etilmoqda

umumiy ovqatlanish shoxobchasi mavjud. Aholining talabidan kelib chiqqan holda to'yxonaga qurish va yaqin kunlarda foydalanishga topshirish arafasida turibmiz, — deydi tadbirkor Sherzod Saparbayev. — Oilaviy korxonamizda o'ngacha yaqin ish o'rni ochilib, yoshlar ish bilan ta'minlanadi.

Aholi farovonligi va tadbirkorlik rivoji asosan elektr energiyasining uzluksizligiga bog'liq. Ayniqsa, "yashil" energiyaning ahamiyati yil sayin ortib boryapti. Shu sababli davlatimiz tomonidan quyosh elektr stansiyalarini qurish ishlari har tomonlama rag'batlantirilmoqda. Qangli ovuli tumanning og'ir toifadagi hududlaridan biri bo'lgani bois, davlat tomonidan 200 kilovattli quyosh panellari o'rnatilmoqda. Kelgusida kambag'al oilalarning 4 a'zosi bu yerda doimiy ish bilan ta'minlanadi. Quyosh elektr stansiyasida ishlab chiqarilgan elektr energiyasining sotilishidan tushgan daromad evaziga ovul hududida boshqa xayrli ishlarni moliyalashtirish imkoniyati ham yaratiladi.

Mahalladagi yangi avlod tadbirkorlari


Amudaryo tumani Yangiobod mahallasidagi ijobiy o'zgarishlar va tizimli ishlar zamirida ham insonni qadrlash, yoshlar kelajagiga yuksak e'tibor mujassam. Mahalladagi hokim yordamchisining sa'y-harakati bilan yoshlar tadbirkorligini qo'llab-

quvvatlash borasida ko'plab xayrli loyihalar hayotga tatbiq etilayotir.

2026-yilning birinchi choragi sarhisobiga ko'ra, Yangiobod mahallasida yashovchi 7 fuqaro oilaviy tadbirkorlikni yo'lga qo'yish istagini bildirdi. Bu intilishi javobisiz qolmadi. Hokim yordamchisining tavsiyasi bilan ularning barchasiga imtiyozli kredit ajratildi. Bu sarmoya chorvachilik, parrandachilik, tikuvchilik, xizmat ko'rsatish hamda ishlab chiqarish kabi muhim yo'nalishlarni qamrab olgani bilan ahamiyatli.



Mazkur yo'nalishlarda ish boshlagan tashabbuskorlarning aksariyati yoshlar. Bu esa mahallada yangi avlod tadbirkorlari shakllanayotganidan dalolat beradi. Ularning



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

mehnat bozorida o'z o'rmini topishi nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlar o'sishi, balki ijtimoiy barqarorlikning ta'minlanishiga ham xizmat qiladi.

Mahallamizda uzoq vaqtdan beri sartiroslik bilan shug'ullanib kelaman. Lekin faoliyatimni kengaytirish, zamon talablariga mos xizmat ko'rsatishim uchun qo'shimcha mablag' va amaliy ko'mak zarur edi. Hokim yordamchisining amaliy yordami tufayli ishonamni zamonaviy jihozlash va mijozlar uchun zarur quvvatlashni hozirlashga erishdim, — deydi mahalla faollaridan biri Ravshanbek Jumaboyev. — Hozir sartirosxonamiz nafaqat sifatli xizmat ko'rsatilishi, balki yaratilgan shinam sharoit bilan ham mijozlar e'tiborini qozongan.

Yangiobod mahallasida joriy yilning birinchi choragida uchta yangi tadbirkorlik subyekti tashkil etildi. Ular oziq-ovqat savdo shoxobchasi, xizmat ko'rsatish va umumiy ovqatlanish yo'nalishlarida faoliyat boshladi. Bu esa mahalla ahli uchun qo'shimcha qulayliklar va yangi ish o'rnlari ochilishini bildiradi.

Endi faqat kredit berish bilan cheklanib qolmay, yoshlarning bilim va ko'nikmalarini oshirishga ham alohida urg'u berilayotir. Jumladan, kasb-hunar va tadbirkorlik sirlarini o'rganish istagidagi 4 fuqaro maxsus o'quv kurslariga yo'naltirildi. Ulardan uch nafari tadbirkorlik asoslarini, biri esa muayyan kasb-hunarni mukammal egallashga kirishdi.

— Ko'p yillardan buyon chorvachilik bilan shug'ullanib kelaman. Shunday bo'lsa-da, chorva sonini ko'paytirishga mablag'im yetishmas edi. Yaqinda bankdan berilgan 32 million so'm imtiyozli kredit hisobidan 8 bosh qo'y sotib oldim, — deydi Alisher Kamolov. — Ishlarim rivojlanib ketishiga ishonaman.

Chorvachilik qishloq sharoitida eng ishonchli daromad manbalaridan. Qo'y boqishda iqtisodiy samaradorlik yuqoriligi, go'sht va jun mahsulotlariga talab mavjudligi Alisher kabi mehnatsevar yoshlarning oilasi farovonligini ta'minlash imkoniyatini kengaytirmoqda.

Mahallamizda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar ko'rilmog'da. 2026-yil davomida Ijtimoiy reyestrda kiritilgan 44 oilaning ahvoli chuqur

o'rganilib, ularni ehtiyojmandlikdan chiqarish bo'yicha individual dastur ishlab chiqilgan. Ushbu dastur doirasida ishsiz fuqarolarni ishga joylashtirish, ularga kredit va subsidiya ajratish, dehqonchilik qilishi uchun yer berish kabi muhim vazifalarni bajarib kelaymiz, — deydi Yangiobod mahallasidagi hokim yordamchisi Murod Qo'chqorov.

Abrosi Allamov ana shunday imkoniyatlardan foydalanib, tomorqasini doimiy daromad manbaiga aylantirgan yurtdoshlarimizdan. U yerning har qarichidan unumli foydalanib, yuqori daromad olishga erishmoqda. Qishloq xo'jaligi texnikalarining subsidiya asosida berilishi esa dehqonlarning og'irini yengil qilmoqda.

Hokim yordamchisining kelgusidagi rejalarini yanada ulkan. Hozirga qadar kambag'al oilalarning 4 a'zosi doimiy ishga joylashtirilgan bo'lsa, 8 nafari o'zini o'zi band qilish orqali rasmiy faoliyat boshladi. Yil boshidan buyon ishsiz 9 fuqaro mavsumiy va doimiy mehnatga jalb etildi. Norasmiy sektorda ishlayotganlarni rasmiylashtirish, ijtimoiy himoyalash borasidagi ishlar ham izchil davom etmoqda.

Yangiobod mahallasidagi bunday manzara yurtimizdagi islohotlarning amaldagi ifodasidir. Yoshlarning tadbirkorlikka ishtiyoqi oshayotgani, ularga ko'rsatilayotgan doimiy e'tibor va imtiyoz kelajakda yuksak natijalar berishi shubhasiz. Zero, o'z mehnati bilan baxtini topayotgan, oilasi va jamiyatga nafi tegayotgan har bir yosh yurtning ertangi tayanchidir.

Minajdatdin QUTLIMURATOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Dasht tarafdin "qurey, qurey" degan ovoz eshitiladi. Shu tomon termilamiz. Bir soy naridan cho'pon opa bir suruv qo'yni haydab biz tomon kelardi. Bir zumda atrofni qo'y-qo'zilarning ma'rashi bosib ketadi. Izma-iz kelayotgan suruv boshini ko'tarmay o'tlaydi. Qo'zichoqlar gohida sakrab, o'yinqaroqlik qiladi. Cho'pon yaqinlashadi. U biz izlab kelgan Salima opa edi.

2026-yil 1-aprel, 62-son



Ocherk

Davlatimiz rahbarining farmoniga ko'ra, joriy yil 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan mukofotlanganlar safida g'uzorlik Salima Xurramova ham bor edi. "G'uzor qorako'lchilik" MCHJ bosh cho'poni bilan suhbatlashib, u haqda yozish maqsadida yo'lga chiqdik. Ammo opani topish oson kechmadi.

DASHT ODAMLARINING ba'et siri

"Shuhrat" medali sohibi Salima Xurramovaning hayoti va faoliyati



Aytishlaricha, cho'ponlar joylashgan manzilgacha taxminan ellik chaqirim yo'l yurish kerak. Mashina dasht oralab, pastu balandliklar osha olg'a intiladi. G'uzor kengliklarining adog'i ko'rinmaydi. Atruf yashillikka burkangan. To'rt-besh chaqirim masofani bosib o'tganimizdan so'ng aholi yashash joylari ham ortda qoldi. Soyalarda neft-gaz sohasiga taalluqli texnikalar ko'zga tashlana boshladi. Ayrim joylarda baland quruvlar ko'rinadi. Gaz konlari jilovlanib, qayta ishlab uchun zavodga yo'naltirilgan. Soha vakillari tinimsiz ishlayapti. Ular sabab bu kengliklarda hayot alomati seziladi.

Ancha yo'l bosganimizdan so'ng katta soy tomonda qo'y-qo'zilarning ko'rinadi. Tepalikdan aylaniib o'tdik. Shinamgina qurilgan uy oldida to'xtadik. Sal narida uchta qo'ra qilingan. Mashinalardan tushishga shaylanganimizda qayerdandir it paydo bo'ldi. Begona ekanimizni sezib, uyga yaqin yo'latgisi kelmadi. Shu payt qo'ra tomondan cho'pon ko'rinib berdi. U itning bo'yiga arqon

soldi. Mezbon bilan salomlikdan so'ng Salima opani so'radik. Uy egasi ayol narigi tomonga ketib qolgan qo'ylarni izlab yurgani, halizamon kelib qolishini aytdi. Fursatdan foydalanib, tepalik tomon shoshdik.

Atrufdagi go'zallikdan ko'z quvnaydi. Butun olam yashillikka burkangan. Ertalab bo'lgani bois, quyosh tafti endi sezilmoqda. Kechagi sovuqdan qovog'i osilgan boychekchalar sekin bosh ko'tarmoqda. Qo'qullarning rangi bir oz o'zgaragan. Ko'klamga uzala tushib yotgan, tiniq osmonga termilib xayol surgisi keladi odamning. O'lis-olisdan do'mbiraga jo'ra bo'lgan chanoqovuz sasi keladi. U o'lkamizga bahor kirib kelganidan darak berayotgandek. Ko'ngillarda ajib his jo'sh uradi. Shu payt musaffo osmonda tumalarning tovushi eshitiladi. Bahor darakchilari ancha balandda parvoz qilaypti.

Dasht tarafdin "qurey, qurey" degan ovoz eshitiladi. Shu tomon termilamiz. Bir soy naridan cho'pon opa bir suruv qo'yni haydab biz tomon kelardi. Bir zumda atrofini qo'y-qo'zilarning ma'rashi bosib ketadi. Izma-iz kelayotgan suruv boshini ko'tarmay o'tlaydi. Qo'zichoqlar gohida sakrab, o'yinqaroqlik qiladi. Cho'pon yaqinlashadi. U biz izlab kelgan Salima opa edi. Qo'lida tayoq. Yurishi dadil. Salomlashdik. Uning taklifi bilan maysaga o'tirib, suhbatni boshladik.

— Bu yil bahor seryog'in boshlandi. Osmonda bulut ko'rinsa, biz kabi chorvadorlarning kayfiyati ko'tariladi. Ko'rib turganingizdek, qo'ylar o't-

o'larga to'yib qoldi. Yaqin uch-to'rt yildan beri bunchalik barakali bahor bo'lmagan edi. Qo'zilar ham sog'lom. Sovliqlar to'yib o'tlasi, bolasi yaxshi rivojlanadi. Yaxshi sut beradi. Sog'ib olishimizga ham yetadi, — deydi suhbatdoshimiz. — Aslida, cho'ponlik qanotamdan meros. U o'z davrida katta chorvador bo'lgan. Bir paytlar shu xo'jalikning qo'yini boqardi. Keyinchalik turmush o'rtog'im bilan birga ishini davom ettirdik. Gohida dugonalrim doim dala-dashtda yurishimni gapiradi. "Qishloqdan olisda, bir xil ish qilib zerikmaysanmi?" deb so'rashadi. Yo'q, deyman. Chunki cho'ponlik — men uchun sevimli kasb. Shu kengliklarda yursam, dilim yayraydi. Aksincha, shahar yoki qishloqqa borsam, yuragim siqiladi.

Bugun Salima opa "G'uzor qorako'lchilik" MCHJda bosh cho'pon. Doim yaylovda yuradi. Shunday bo'lsa-da, ro'zg'or ishlarini ham, chorva boqishini ham birdek uddalab kelmoqda. Turmush o'rtog'i To'lg'in aka ham cho'pon. Ular yigirma yildan ziyod vaqt mobaynida birga mehnat qilib kelmoqda. Hayot chorraxalaridagi qiyinchiliklarni hamjihatlikda yengib o'tyapti. Shu kasb ortidan ro'zg'ori but. Uch o'g'il, bir qizni tarbiyalab, voyaga yetkazdi.

— Chorvaga ergashib yurish kishidan kuchli iroda talab etadi, — deydi Salima opa. — Kun davomida oyoqda tik yurish kerak. Gohida bir kunda o'ttiz-qirtq chaqirim yo'l bosishga to'g'ri keladi. Suruvni to'ydirish uchun qancha ko'p haydasangiz, shuncha yaxshi. Ba'zi mavsumlarda suruvni kechasi yailovga haydash kerak. Shunday paytlarda bo'ribosar iltardan boshqa hamroh topilmaydi. Bu kasbning og'iriga ham,



yengiliga ham chidash zarur. Ayniqsa, tabiatning injiqliklari chorvadorlarni ba'zida qiyinab qo'yadi. Hech yodimdan chiqmaydi: bir yili may oyida kechga qadar osmonda qop-qora bulutlar paydo bo'lib, shamol turdi. Atruf dashtlab changib ketdi. O'sha paytda o'tovda yashardik. Qizim ikki oylik go'dak edi. Bir payt jala yog'a boshladi. Izidan do'l boshlandi. O'tov ichida qizimni olib o'tirgandim. Shu mahal o'tov ichiga kattaligi piyoladai dumaloq oq narsa tushdi. Nima ekanini anglashga ulgurmasimdan tinimsiz tusha boshladi. Bilsam, do'l shunchalik katta bo'lib yog'ayotgan

ekan. Bolamni quchoqlaganicha qayga panalashni bilmay yugurib, qo'raga kirdim. O'n daqiqaga bormay, do'l o'tovni yer bilan bitta qildi. Otarning ahvolini ko'rib, dod deb yuborgim keldi. Aksariyat qo'ylar nobud bo'ldi. Ikkiita sigirdan ayrildik. Atruf chalayon qo'ylar bilan to'ldi. Ko'z ochib-yunguncha ayanchil manzara hosil bo'ldi. O'shandagi katta yo'qotish hanuz yodimdan chiqmaydi. Bunday ofatdan Yaratgan asrasin.

Cho'pon ayolning hikoyalarni tinglab, shuncha mashaqqatga qaramay kasbidan voz kechib ketmaganiga tasanno aytdik. Ana shu

sabr, chidam ortidagi mashaqqatli mehnat e'tibor qozondi, mukofotga munosib ko'riladi.

— O'shanda bayram arafasi edi. Huv narigi tepalikda qo'y boqib o'tirgandim. Bir payt turmush o'rtog'im qo'lida telefon bilan men tomon shoshib keldi, — deydi suhbatdoshimiz. — Nima gap ekan deb xavotir oldim. Meni so'rashayotgan ekan. Antenna izlab tepalikka chiqdik. Shu payt qo'ng'iroq bo'ldi. Javob bersam, fermazim raisi ekan. "Tabriklaymiz, medal muborak bo'lsin", deydi. Hayron bo'lib, "Kimga, qanday mukofot?" debman. Shu bilan suhbatimiz tugadi. Turmush o'rtog'imga qarayman. U ham hech narsani tushunmaganini aytdi. So'ng raisga qayta qo'ng'iroq qildik. Nima gap ekanini so'radik. Shundan so'ng davlatimiz rahbarining farmoniga ko'ra "Shuhrat" medali bilan mukofotlanganimni aytdi. O'shandagi quvonchimni ta'riflab berolmayman. Yerga o'tirib, ancha vaqtgacha hayajondan o'zimga kelolmadim. Ko'z oldimdan gashiga yillik mehnatim birmabar o'tib, qilgan ishlarim munosib taqdirlanganiga ishonolmasdim. Yurtning chekka bir manzilidagi oddiy cho'pon ayol Prezidentimiz e'tiboriga tushgani meni juda g'ururlantirdi. Demak, bu yurtta hech kim e'tibordan chetda emas ekan.


Cho'pon opa hanuzgacha medalni ko'ksidan olmay, bildirilgan ishonchni oqlash uchun yanada jiddu-jahd bilan mehnat qilaypti. Hozir 250 bosh sovliqni kelgusi yili yanada ko'paytirishni maqsad qilgan. Buning uchun unda tajriba ham, sabr-qanoat ham yetarli.

Akbar RAHMONOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



Mulohaza

Milliy qadriyatlar bamisoli sog'lom hujayraga, ommaviy madaniyat ta'siri esa saraton hujayrasiga o'xshaydi. Xlorofill usuli salomatlikni tiklashga xizmat qilish orqali yetgan organizmlarga qarshi kurashadi. Dabdabali o'zbek to'ylari haqida so'z yuritir ekanmiz, ularni cheklash emas, balki ixchamlashtirish, asl mohiyatini saqlab qolish orqali yet g'oyalarga chek qo'yish tarafdorimiz.



Ziyoda AKBARQULOVA, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi bosh mutaxassisi

baholash mumkin? O'z mavqeamizni dabdababozlik bilan belgilashimiz qanchalik to'g'ri?

"Asalga qarshi asalari" iborasini eshitgansiz. Asalari hech qachon asalga qarshi chiqmasligini ham yaxshi bilasiz. Mazkur iboraning mohiyatidan kelib chiqib aytganda, to'y qilishga qarshi emasmiz, bor-yo'g'i to'ylarni ixchamlashtirish tarafdorimiz. Buni ommaga aytishdan to'xtamayotganimiz va charchamayotganimizning esa o'ziga xos talay sabablari bor.

To'ydagari har bir an'ana kattalar nazoratida kechadi. To'yda oila va qarindoshlar, yaqin tanishlarning ishtirok etishi unda ilgari surilayotgan har qanday g'oya va targ'ibotning ta'sir kuchini ko'paytiradi. Katta avlodning "orzusi", yosh avlodning "havasi" to'qnashgan nuqtada azaliy qadriyatlar chetga surilib, ularning qiymati pasayadi.

To'y marosimini ixcham o'tkazish masalasida avlodlar bir-birini qoralashdan, bir-birlaridan xato-kamchiliklar qidirishdan to'xtashimiz va o'zbekona qilib aytganda, do'ppini yerga qo'yib, maslahatga maxsi kiydirishimizning vaqti yetgan, nazarimda. Shu o'rinda to'ylarni ixchamlashtirish bo'yicha O'zbekistonda yoshlarning fikr-mulohazalarini o'rgangan "U-Report" loyihasinga quyidagi tahlillariga e'tibor qaratsak. Mamlakat bo'yilab so'rovda ishtirok

MILLIY QADRIYATLAR VA OMMAVIY MADANIYAT BAHSI Dabdababozlik hech kimga naf bermaydi

etgan 14 ming yoshning 70 foizi to'ylarni ixchamlashtirishni qonuniy belgilab qo'yishni ma'qullagan. Respondentlarning 63 foizi ixcham to'ylar o'tkazilishini yoqlagan bo'lsa, 18 foizi buni ma'qullamasligini bildirgan. "Hashamatli to'y o'tkazishga nima sabab bo'ladi?" mazmunidagi savolga ishtirokchilarning 54 foizi "odamlarning fikri", 20 foizi esa "yoshlar va ularning ota-onalari qiladigan orzu-havas" degan javobni belgilagan.

Shuningdek, respondentlarning 47 foizi ixcham to'yda tejab qolinadigan pulni mulk xaridiga, 17 foizi ota-onasining horidiq chiqarishiga, 12 foizi esa to'ydan keyingi sayohatga yo'naltirish to'g'ri bo'lishini tasdiqlagan.

Ko'plab axloqsizliklarga sabab bo'layotgani uchun ijtimoiy tarmoqlarni taqiqlagan, iqtisodiy muammolar kuchayib ketgan Nepalda o'tgan yilning sentabr oyida

"Zet" avlod vakillari ommaviy norozilik bildirdi. Ular "Holy Bell English Secondary School" o'quvchisi Abishkor Raunting mehrosdoshlariga bir necha yil avval qilgan quyidagi chaqirig'ini internetda qayta tarqatib, ommalashtirdilar:

"Hurmatli ustozlar, aziz tengdoshlar va yurtim yoshlari! Bugun biz globalashuv tezlashgan, axborot oqimlari chegara bilmas darajaga yetgan, qadriyatlar to'qnashuvi kuchaygan bir davrda yashayapmiz. Bu jarayonlar biz — yoshlar uchun keng imkoniyatlar bilan birga jiddiy xavf-xatarlarni ham olib kelmoqda. Ayniqsa, ma'naviy inqiroz, axloqiy beparvoqlik, yet g'oyalarga ergashish, ijtimoiy befarqlik kabi holatlar yosh avlod kelajagi uchun katta tahdid sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bugungi kunda yoshlarning asosiy muammolari faqat ishsizlik yoki ta'lim

sifati bilan cheklanib qolmayapti. Ruhiiy bo'shliq, o'zligini yo'qotish, milliy va madaniy ildizlardan uzilish, virtual dunyo ta'sirida real hayotdan uzozlashish kabi muammolar jamiyat barqarorligiga bevosita ta'sir qilmoqda. Ushbu muammolar alohida shaxsga taalluqidek tuyulsa-da, aslida, ular ijtimoiy xavf tusini olgan tizimli jarayondir. Agar yosh inson o'z millatning tarixi, qadriyatlari va ma'naviy merosini anglamas, u har qanday yot mafkura ta'siriga tez beriluvchan bo'ladi. Bu esa ekstremizm, zo'ravonlik, radikalizm, axloqiy buzulish kabi illatlar uchun qulay muhit yaratadi. Demak, ma'naviy tahdidlar faqat axloq masalasi emas, balki milliy xavfsizlik bilan bevosita bog'liq ijtimoiy xavfdir. Shuning uchun ham biz, yoshlar faqat bilim olish bilan cheklanib qolmay, ma'naviy mas'uliyatni his qilishimiz, o'zligimizni anglashimiz, jamiyat taqdiriga befarq bo'lmasligimiz lozim. Davlat, maktab, oila va jamoatchilik birgalikda yoshlar ongida ma'naviy immunitetni shakllantira olsagina, biz barqaror va adolatl jamiyatni barpo etishimiz mumkin".

Darhaqiqat, mazkur nutq nafaqat nepalilik, balki dunyodagi ko'plab yoshlar uchun ham vatanparvar avlodning chaqirig'i sifatida baholandi. Chunki ruhiy bo'shliq, o'zligini yo'qotish, milliy va madaniy ildizlardan uzilish, virtual dunyo ta'sirida real hayotdan uzozlashish kabi muammolar jamiyat barqarorligiga bevosita ta'sir qilib, har qanday mamlakat taraqqiyotiga va insoniyat kelajagiga xavf tug'dirishini his etishimiz lozim. Qolaversa, tabiiy resurslar tanqisligi va ekologik muammolar avj olayotganini bila turib, ma'naviy-mafkuraviy tahdidlarning yanada kuchayishiga hissa qo'shishdan tiyilish vatan va dunyo oldidagi burchimizdir. Jadid bobolarimiz to'y marosimlarini ixchamlashtirish, isrofgarchilikning oldini

olish bo'yicha o'z davri matbuotida 150 dan ortiq chiqish qilgan. Ular barcha illatlarga qarshi turadigan kuch sifatida ilm-ma'rifati ilgari surgan. Jadidlar qo'l qovushirib o'timadi: yangi ruhda qadriyatlar ochdi, darsliklar yozishdi, teatrlar tashkil etib, spektakllar qo'yishdi. Ozchilik ko'pchilikka ibrat bo'lishga intildi. Ular o'zgarishni, o'zligimizga qaytishimizni istashdi, aytar gapimiz qilar amalimizga mos kelishiga undashdi.

So'nggi paytlarda ijtimoiy tarmoqlarda aksariyat ziyoli, boshqarlarga ibrat bo'lishga mas'ul hamyurtlarimizning ham jamiyat bilan dabdaba tilida so'zlashayotganini kuzatayapmiz, afsuski. Izohlarni o'qirganmiz, ziyoli insonlarning "el qatori" qilayotgan xatolarini ko'pchilik hazm qilolmasligiga guvoh bo'lamiz.

To'yda isrofgarchilik va axloqsizlikning targ'ib etilishi jamiyatning yoshlarga to'g'ridan to'g'ri salbiy ibrat bo'lishi emasmi? O'nlab marosimlarni muhassamlikda o'tkazish uchun oila byudjetiga mehnat bilan kirib kelayotgan mablag'ni "sochish" qaysi qadriyat yoki an'ana qolipiga to'g'ri keladi?

Har qanday qonun yoki qarorning to'g'riligi, kuchi va samarasi uning ijro mexanizmlari hamda shaffofligi bilan bog'liq. To'ylarni ixchamlashtirish haqida qabul qilingan rasmiy hujjatlar bilan tanishsangiz, ularning negizida isrofgarchilik va iqtisodiy inqirozning oldini olishga qaratilgan asosli masalalar ilgari surilayotganini ko'ramiz. O'zimizning muhtakam bo'lishi, moliyaviy ahvolumizning yaxshilanishi, axloqiy qiyofamizning go'zallashishi, eng avvalo, o'zimizga kerak emasmi? Bu yil "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" deb nomlandi. Kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan islohotlar bir zum bo'lsa-da to'xtagan yo'q. Ammo jamiyatni yuksaltirish ozchilikning sa'y-harakati bilan emas, ko'pchilikning mehnati va intilishi bilan kechadi.

Darhaqiqat, yuqorida keltirilgan xlorofill metodi bugun nihoyatda dolzarb ahamiyatga ega. Katta qismimiz sog'lom jamiyat a'zosi sifatida to'g'ri qadriyatlarini, to'g'ri an'analarni yoqlaylik, shunda noto'g'rilari o'z-o'zidan parchalanib ketadi.

Har bir qadriyatimiz bebaho merosimizdir. Ularni bizdan hech kim tortib ololmagani kabi ularni bizdek hech kim beshkast saqlay olmaydi. Qadriyatlarimizning qiymati oltinga o'xshaydi, yaltiroq tangani oltinga qo'shib qo'yish esa uning vaznini oshirmaydi.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

MUASSIS: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir: Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqiriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul. Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-446. 30559 nusxada bosildi. Hajmi — 3 ta boq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Avazbek Xudoyqulov Musahhih: Sherzod Mahmudov Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzilimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'za yakuni — 00:05